



1991-yildan
chiqa boshlagan

2024-yil. 4-son

ISSN 2010-5584

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz



©bahiddinbozarov

Ushbu sonda



ILG'OR PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR

Ta'lim samaradorligini
oshirish: "4k"
kompetensiyasi

7
bet



METODIK TAVSIYA

Ona tilimizni o'rgatishda
lug'atlardan foydalanish

13
bet



TADQIQOT

Jahon
adabiyotshunosligida
yetim bola obrazining
ilmiy-nazariy jihatdan
o'rganilishi

41
bet



ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Процесс
детерминализации
в языке писателя

59
bet



O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida 2014-
yil 19-dekabrda
0055-raqam bilan
qayta ro'yxatga
olingan
2024-yil. 4-son

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Bahodir JOVLIYEV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Qayum BAYMIROV
Adiba DAVLATOVA
Sanobar TO'LAGANOVA
Yo'ldosh RAHMATOV
Lutfullo JO'RAYEV
(mas'ul kotib)

Bosh muharrir

Farrux JABBOROV

Shahfalo'vchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Emma TOROSYAN

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Navoiy ko'chasi 30-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz

veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bo'lishi mumkin. Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqlovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga 2024.25.04. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 $\frac{1}{2}$. Shartli bosma tabog'i 6,0. "Arial" garniturasini 10, 11 kegl. "GOLD PRINT PRES" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Chilonzor tumani, Cho'pon ota 28 A uy.
Buyurtma №-8 Adadi 4700 nusxa. Bahosi ke-lisilgan narxda.

MUNDARIGA

Sarvara Akobirova. Ochiq osmon ostidagi ulug'vor darsxona	3
Adabiy taqvim	
Ilg'or pedagogik texnologiyalar	
G'ofur Allamuratov. Ta'lim samaradorligini oshirish: "4K" kompetensiyasi	7
Gulrukh Yusupova. Differential instructions in EFL classes: general overview	8
Hilola Maksudova. The dual-focused approach of CLIL and EMI for Integrated language and content mastery	10
Metodik tavsiya	
Saida Maksumova. Ona tilimzni o'rgatishda lug'atlardan foydalanish	13
Dilfuzakhon Saidkodirova. The role of active methods in teaching foreign languages	16
Zilola Mahmudova. Problems in developing students' speaking skills and teachers' role in their solutions	18
Tahlil	
Yoqutxon Erkaboyeva. Gonzo jurnalistika mohiyati, o'ziga xosligi va shakllanish tamoyillari	19
Baxtiyor Daniyarov. Navoiyning buyuk xizmatlari	21
Sabina Ruziyeva. Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" asari lingvopragmatik tahlili	23
Shohsanam Botirova. Bir vujudga ikki shaxs	25
Zabarjad Bobojonova. Davriy nashrlarga san'at mavzularining kirib kelishi	26
Gavhar Muftullayeva. "Hayrat ul-abror"da Xoja Ubaydulloh Ahror slyomosining badiiy talqini	28
Tilshunoslik	
Raximberdi Ayatov. Turizmga oid inglizcha terminlar tarjimai xususida ayrim mulohazalar	30
Baxtiyor Mengliyev. Sovet va zamonaviy o'zbek tilshunosligida metodologiya muammosi	32
Nargiza Xodjakulova, Iroda Ismatullayeva. Tanqidiy tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda chet til o'qituvchisining kreativlik mahorati	37
Tadqiqot	
Intizor Abdirimova. Klaster usulida ijtimoiy hamkorlik mexanizmi	39
Iqbola Qodirjonova. Jahon adabiyotshunosligida yetim bola obrazining ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilishi	41
Oybek Nurjanov. Dialektal leksikaning etnografizmlarga munosabati	44
Sohibjon Misirov. Pedagogika va psixologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish	46
Qo'shimcha material	
Dilshod Ro'ziqulov, Fardona Yaxshiboyeva. Media orqali xorijiy tillarda axborot uzatishning uslubiy xususiyatlari	48
Методика. Опыт	
Луиза Турдиева. Изменение имён существительных по падежам	49
Используйте эти материалы	
Инобат Турсунова, Шохидабону Базарова. Использование произведений живописи при обучении студентов узбекских групп различным видам речевой деятельности	51
Анжелла Бабаева. Инновационные технологии совершенствования коммуникативной подготовки будущего учителя русского языка как иностранного	53
Сурайё Хамраходжаева. Как правильно обучить студентов экономического направления креативному письму на иностранном языке	55
Языкознание	
Махбуба Болтаева. Концепты «женщина» и «мужчина» в русских пословицах и поговорках	57
Мухаббат Буриева. Концепты родителей и детей в русских и английских паремиях	58
Алевтина Шварц. Процесс детерминализации в языке писателя	59
Литературоведение	
Елена Шевченко. Актуальность исторических романов В.С.Пикуля	61
Гулхаё Эзизбекова, Илина Сиддикова. Роль художественной детали в рассказе Леонида Андреева «Валя»	62
Научные исследования	
Лидия Шим, Ирина Львова. Антитеза имени и глагола в корейском и русском языках	64
Ольга Ким, Яйра Махматкулова. Морфологический и семантический аспекты лексико-генетических механизмов формирования составных имённых слов в корейском языке	68
Еркин Кененбаев. Интернет-коммуникация с позиции ее воздействия на трансформацию когнитивных аспектов личности	72
Эльдар Гиздуллин, Умида Гафурова. Влияние цифровых технологий на современную литературу: новые формы творчества и восприятия	74
Шахноза Давидходжаева. Особенности вербализации концепта «ум» в русской и узбекской языковой картине мира	76
Виктор Суханов. Зигфрид и Алпамыш: образ идеального правителя в эпосе разных народов	78

журнали

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashr.

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ИЛИ И АРТЕПЕДИЯ

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Wilson J.J. How to teach listening. – Edinburgh Gate: Pearson Education Limited, 2008.
2. <https://communispond.com/listening-improving-the-most-used-communication-skill>
3. <https://www.skillsyouneed.com/ips/listening-types.html>
4. Beard D., Bodie G. Listening research in the communication discipline. In P.J. Gehrke & W.M. Keith (Eds.), *A century of communication studies: An unfinished conversation*. – Routledge, 2014. – pp. 219–245.
5. Imhof M. What makes a good listener? Listening behavior in instructional settings // *International Journal of Listening*, 1998, 12, pp. 82–105.
6. Myers S. Empathic listening: Reports on the experience of being heard // *Journal of Humanistic Psychology*, 2000, 40(2), pp. 148–173.
7. Wolvin A.D., Coakley C.G. *Listening* (5th ed.). – McGraw-Hill, 1996.
8. Worthington D.L., Fitch-Hauser M.E. *Listening: Processes, functions, and competency*. – Routledge, 2018.

Tadqiqot



Intizor ABDIRIMOVA,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsent v.b.

KLAUSTER USULIDA IJTIMOYIY HAMKORLIK MEXANIZMI

Annotatsiya. Maqolada loyiha faoliyati va pedagogik ta'lim klasteri tushunchalariga ta'rif berilib, loyiha faoliyatida klaster usulini qo'llashda ijtimoiy hamkorlik tushunchasi misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: klaster, ijtimoiy hamkorlik, mexanizm, ijtimoiy subyektlar, loyihalash faoliyati, pedagogik ta'lim klasteri, klaster yondashuv, innovatsion texnologiya.

Annotation. The article defines the concepts of project activity and the cluster of teacher education, as well as the examples of the concept of social cooperation when applying the cluster method in project activity.

Keywords: cluster, social cooperation, mechanism, social education, project activity, teacher education cluster, cluster approach, innovative technology.

Аннотация. В статье определены понятия проектной деятельности и кластера педагогического образования, а также на примерах раскрыто понятие социальной кооперации при применении кластерного метода в проектной деятельности.

Ключевые слова: кластер, социальная кооперация, механизм, социальные образования, проектная деятельность, кластер педагогического образования, кластерный подход, инновационная технология.

Yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga e'tibor berish davlat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olgan holda ta'lim tizimida bir qator o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Taraqqiyotning jadal sur'atlari tufayli innovatsiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish bugungi kunning dolzarb masalalari qatorida turibdi. U ta'lim sohasidagi tizimli muammolarni yangi usul, shakl, yondashuv va texnik jarayondan foydalangan holda yechish sohasida sifat ko'rsatkichlarini oshirish jarayonini ta'minlaydi. Shu nuqtayi nazardan axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'zaro hamkorlikda o'rganish imkonini beruvchi, asosan ta'lim jarayonida an'anaviy ta'lim mexanizmidan voz kechishni maqsad qilgan va o'quvchilarning tashabbuskorligini rag'batlantiradigan loyihalash faoliyatini tatbiq etish, shubhasiz, samarador ustunlikka ega. Loyihalash faoliyatida turli ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlari ishtirokidagi hamkorlikdagi loyihalar muhim o'rin tutadi.

1918-yilda Kolumbiya universiteti pedagogika kolleji o'qituvchisi Uilyam Kilpatrick loyihalash metodining mohiyatiga bag'ishlangan "Loyihalash metodi" maqolasini nashr etdi. Muallifning maqolalarida bu atama quyidagicha izohlanadi: "Loyiha" atamasi faoliyatning har qanday imkoniyatini, eksperimental jarayonining munosabatini anglatishi kerak. Bunda maqsad ichki omil sifatida:

– faoliyatning maqsadini anglatadi, tajribaga ega bo'lish jarayonini boshqaradi;

– shaxsning o'z faoliyatini va ichki qobiliyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi [1].

Loyihalash metodi uzluksizlikni ta'minlay olmagani va puxta o'ylanmagan metod sifatida tanqidga uchradi va yaqin davrgacha ta'lim jarayonida qo'llanilmasdan keldi.

Rus olimlari Ingrid Bem va Yens Shnayder loyihalash faoliyati o'quvchilarni ma'lum bir ta'lim olish davrida (o'quv yili yoki yarim yillik) bilim olish va kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning usuli deb hisoblaydilar [2].

Loyiha faoliyatida asosiy o'rinni turli ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlari hamkorligidagi loyihalar egallaydi. Loyiha metodining ta'limga kirib kelishi XIX asrga to'g'ri keladi. "Klaster" nazariyasi birinchi marta iqtisod sohasida vujudga kelgan. "Klaster" nazariyasining ko'p qirraliligi mohiyatan turli nazariy yondashuvlarning shakllanishiga olib keladi.

O'quvchining bilimi o'sishi ichki va tashqi o'qish faoliyati natijasida yuz beradi. Ichki omillarga o'quvchining o'z ustida ishlashi, zarur bilimlarni egallashga intilishi jarayoni kiritilsa, tashqi omillarga o'quvchining loyiha jarayonida ishtirok etishi va shu orqali egallagan bilimlari nazarda tutiladi [3]. Loyihalash faoliyatida turli ta'lim muassasalari, jamoat va davlat tashkilotlari ishtirokidagi hamkorlikdagi loyihalar muhim o'rinni tutadi. Maktab o'quvchilarining ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishdagi ishtiroki ularga mukammal bilim va yuksak malakaga ega

bo'lish, mustaqil faoliyat ko'nikmalarini egallash imkonini beradi. Ana shu jihatdan kelib chiqqan holda bugungi kunda maktab bitiruvchisining ijtimoiy faol shaxs sifatida shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatayotgan maktab tizimidagi ta'lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy hamkorlikka alohida e'tibor qaratish masalasi kun tartibiga chiqmoqda.

Loyihalash faoliyatida klaster usulini qo'llash loyiha topshiriqlarini hal qilishga qaratilgan huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy va tashkiliy-metodik shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan faoliyatdan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Klaster usuli yordamida loyihalash faoliyatini tashkil etish hamkorlik va o'zaro muloqotni talab qiladi. Bu, o'z navbatida, ta'limning mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari, biznes va mehnat bozori bilan ijobiy tarzda o'zaro ta'sir etishining ifodasi sanaladi. Bundan kelib chiqqan holda loyiha faoliyatida klaster usulini qo'llashdagi eng samarali mexanizm sifatida ijtimoiy hamkorlik nazarda tutiladi, chunki aynan shu orqali loyihaning ishtirokchilari o'rtasida amaliy muloqotga erishish mumkin bo'ladi.

Klaster metodi asosida tashkil etilgan loyihalash faoliyatida ijtimoiy hamkorlik nafaqat ta'lim tizimi, balki turli toifa va qiziqishga ega bo'lgan ijtimoiy sinflar va ijtimoiy guruhlar, turli darajadagi muassasalar, o'quvchilar, o'qituvchilar, o'quvchilarning ota-onalari bilan o'zaro integratsiyalashuv jarayonini yuzaga keltiradi. Umumta'lim maktablari, ilmiy muassasalar, qo'shimcha ta'lim muassasalari, muzeylar, kutubxonalar, axborot tarmoqlari bu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Loyihalash faoliyatidagi bunday yaqin ijtimoiy hamkorlik natijasida mutaxassislar tayyorlash, loyihani moliyalashtirish uchun manba topish, ta'lim muassasalarini axborot texnologiyalari va metodik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, turli korxona va tashkilotlar, ilmiy markazlar bilan hamkorlik jarayonida innovatsion loyihalarni amalga oshirish masalalari samarali yechim topadi. Shu o'rinda ijtimoiy hamkorlik mexanizmi ikkita muhim vazifani bajaradi: 1) loyiha ishtirokchilari o'rtasida ijtimoiy kelishuvni ta'minlaydi; 2) loyihalash faoliyatining asosiy maqsadiga erishish uchun imkon yaratadi.

Ilk bor aynan pedagogika sohasidagi ijtimoiy hamkorlik g'oyalari D.Dyui, S.T.Shatskiy, A.S.Makarenkoning ishlarida o'z ifodasini topgan edi. Ushbu mualliflarning ilmiy asarlarida bolaning tabiiy muhitda real hayotda voyaga yetishi uchun ta'lim muassasasining atrof-muhit bilan, maktabning oila, jamoatchilik, nodavlat uyushmalar bilan mustahkam aloqa o'rnatish zaruratiga turli xil qarashlar keltirilgan.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida yuzaga kelgan vaziyat bu masalaga alohida va kuchli e'tibor qaratish joizligini

ko'rsatmoqda. Shuni aytish kerakki, zamonaviy pedagogik nazariya ham ta'lim sohasida keng ijtimoiy hamkorlikning zarurligini uqtiradi, sababi aynan ta'lim tizimi, jamiyatning asosiy sohalari bo'lgan iqtisod, ijtimoiy strukturalar, siyosat, madaniyat bilan uzviy bog'liq yetakchi ijtimoiy institutdir.

Umumiy hisobda ijtimoiy hamkorlik deyilganda turli ijtimoiy guruhlarning birgalikdagi, jamoaviy umummanfaatli va ijobiy faoliyatini anglash mumkin [4]. Ijtimoiy hamkorlik bu holda davlat va uning nomidan ushbu munosabatlarda ishtirok etuvchi davlat organlari bilan munosabatlarning boshqa subyektlari – shaxslar, oilalar, jamoat guruhlari va institutlari, nodavlat tashkilotlar, jamg'armalar va ittifoqlar o'rtasidagi munosabatlar sifatida qaraladi. Ushbu munosabatlardan ko'zlangan asosiy maqsad muhim siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa muammolarning yechimini birgalikda topish, shahar, hudud hayotiga birgalikda mas'ul bo'lish, fuqarolarga yuqori darajadagi ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashdan iborat. Ta'lim tizimidagi ijtimoiy hamkorlikni tahlil qilganda bir qancha qarashlar diqqat markazda bo'ladi.

M.S.Chvanovaga ko'ra bu: birinchidan, jismoniy va yuridik shaxslar, jumladan, ta'lim muassasasining iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning huquqiy shakli; ikkinchidan, jamoat tashkilotlari, firmalar va kompaniyalarning ta'lim muassasasi bilan norasmiy, ya'ni huquqiy kuchga ega bo'lmagan, shartnoma yoki kelishuv bilan tasdiqlangan hamkorlik shakli; uchinchidan, ta'limni rivojlantirishning bir shakli; to'rtinchidan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bir maromda bo'lishini ta'minlaydigan mexanizm; beshinchidan, ijtimoiy, iqtisodiy muammolarni bartaraf etishning bir usuli bo'lib, ta'lim muassasasi, ish beruvchi va davlat o'rtasidagi ziddiyatlarni ijobiy hal qilish shakli [5].

N.Y.Astafyeva fikricha, ta'lim sohasida ijtimoiy hamkorlik faoliyatining samaradorligiga erishish uchun avvalo jamoat shartnomasi ishtirokchilari, ya'ni subyektlari birgalikda harakat qilishlari kerak, bu harakatlar natijasida shaxsiy manfaatdorlik jamoaviy manfaatdorlikni keltirib chiqaradi [6]. Ijtimoiy hamkorlik oddiy hamkorlikdan o'zining samaradorligi va sifati bilan ajralib turadi, chunki har bir ishtirokchining muvaffaqiyati butun jamoaning muvaffaqiyati bilan bog'liq.

Loyihani amalga oshirish tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu ta'lim bozorida hamkorlarning raqobatbardoshligini oshiradi va ularga uzoq muddatda o'z o'rnini va mavqeyini qo'lga kiritish imkonini beradi. Ijtimoiy hamkorlik har bir tomonning vazifalarni samarali bajarish, mas'uliyatni his qilish ko'nikmasini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Porter M. Competitive strategy: techniques for analyzing industries and competitors. – Cambridge, 1980.
- Щербо И. Второе пришествие метода проектов // Директор школы, 2003, №3. – С. 25–32.
- Хуторской А.В. Современная дидактика. – СПб: Питер, 2001. – 534 с.
- Ялов Д.А. Кластерный подход как технология управления региональным экономическим развитием. URL: http://contract.ru/Docum/DocumShow_DocumID_17.html. Зарг. с экрана.
- Чванова М.С. Социальное партнерство в сфере профессионального образования: монография. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г.Р.Державина, 2007. – 92 с.
- Астафьева Н.Е. Социальное партнерство в воспитании кадет // Российская кадетская переключка, 2008, №4. [Электронный ресурс]. URL: <http://www.fskk.ru/journal/?aID=126>. html. Зарг. с экрана.